

JAHON OPERA SAN'ATIDA JUZEPPE VERDI IJODINING O'RNI VA AHAMIYATI

Shohrux Yigitaliyev

Farg'ona ixtisoslashtirilgan san'at maktabi

“Xor dirijyorligi” bo'limi o'qituvchisi

Tel:+998911376337

Annotatsiya: Ushbu maqolada Juzeppe Verdining katta ijodiy yo'li, opera ijodi, mashhur opera xor sahnalari haqida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: Opera, libretto, dekoratsiya, uvertyura, ariya, xor sahnalari.

Juzeppe Verdi ijodi jahon opera san'atining eng katta yutuqlaridan biri bo'lib, XIX asrda italyan operasi rivojlanishining cho'qqisi hisoblanadi. Opera-sahnada ko'rsatiladigan yirik musiqiy asardir. Bunday asar to'rt xil san'at turi qo'shilishidan hosil bo'ladi. Bular, musiqa san'ati, teatr san'ati, raqs san'ati va rassomchilik san'ati. Opera spektakli qanchalik rang-barang qirralariga ega bo'lmasin, musiqa asosiy umumlashtiruvchi, rivojlantirishning uzluksizligini ta'minlovchi vosita hisoblanadi. U nafaqat alohida holatlarni izohlaydi, balki dramaning barcha usullarini yaxlit bog'laydi asar qahramonlari harakatini asosini, ichki dunyosini murakkab munosabatini aniqlab beradi, ko'pincha bevosita asar g'oyasi ham ifodalab beradi. Adabiy dramani tuzlishidan farqli o'laroq operada musiqaning yetakchi vazifa asarning bir qator xususiyatlarini aniqlab beradi. Opera dramaturgiyasi mohiyati ssenariy tuzayotganda boshlanadi. Keyinchalik libretto ishlab chiqishda inobatga olinadi. Musiqa san'ati operada asosiy o'rinni egallaydi. Chunki opera asari voqealari bosh qahramonlarining ichki kechinmalari asosan kuylash va simfonik orkestrning ijrosi orqali tasvirlanadi. Har bir xonanda sahna mahoratiga ega bo'lishi kerak. Orada raqs nomerlari ham bo'ladi, rassomchilik san'ati esa sahnani bezashga, dekoratsiyalar tayyorlash uchun zarur. Opera asari kompozitor tomonidan tarixiy voqealar tarixiy voqealar, ertak va afsonalar yoki yozuvchi va shoirlarning asarlari asosida yaratiladi. Opera musiqasi yaratilishidan avval uning adabiy matni yoziladi. Bu matn bir shoir tomonidan yoziladi va libretto deb ataladi. Libretto yaratish uchun tayyor adabiy dramatik asar asos bo'lib xizmat qilgan holda, unga odatda dramatik rivojlantirish bevosita ta'sir ko'rsatuvchi bir qator o'zgartirishlar kiritiladi. Opera librettosining adabiy dramadan farqi shundaki, operaning mazmuni qisqa va lo'nda bayon etiladi. Opera dramaturgiyasi ahamiyatidan kelib chiqqan holda ular ham bir xil ko'rinishda saqlanib qolinmaydi. Xususan, XIX asr Italiya opera seriyasida vokal shakllarining dramaturgik vazifasi va tuzilishi aniq belgilangan va chegaralangan bo'lsa, keyinchalik, ularning ancha erkin qo'llanishiga imkoniyat yaratiladi. Rechitativ va vokal lavhalar orasidagi chegara keskin olib tashlanadi va shu tariqa tuzilishi va ifodaviy xarakteri jihatdan rang-barang ko'rinishni kasb etadi, turli xil aralash shakllar vujudga keladi. Opera tomoshasi bir necha bo'lim(parda)dan iborat bo'ladi. Har bir parda sahnalar va ko'rinishlardan iborat. Ko'rinishning katta bo'limlari bitta lavhadadan butun bir pardagacha uzluksiz musiqiy rivojlanish asosida yo'naltiriladi. Operada adabiy matnning tushunarli bo'lishi uchun nisbatan uzoq davom etgan kuylashda turli o'ziga xos sharoitlarning yaratilishi talab qilinadi. Xususan so'zalarning ohang jihatdan ajratilishi, ovozning baland tessiturada bayoni, so'zning to'xtalishlar yordamida maxsus yo'naltirish, uning alohida va tez solo talaffuzi, yetakchi so'zlarning ko'p marotaba takrorlanishi va atroflicha kuylanishi shular jumlasiga kiradi. Umuman olganda, opera matnini quyidagi toifalarga bo'lish mumkin: Qahramon holatlarini ifodalovchi va voqea rivojini aniqlab beruvchi, e'tiborni jalb etuvchi so'zlardan tashkil topgan va albatta tushunarli bo'lgan, umumlashtirilgan jo'shqin musiqiy bayon etish uchun ikkinchi darajali ahamiyatga ega bo'lgan, aniq talaffuz uchun mo'ljallangan va faqatgina sahnaviy holatlari yaratish uchun xizmat qilgan, fon vazifasini bajaruvchi so'zlarga ega bo'lgan. U yoki bu darajadagi matnning taqsimlash mazkur operaning janr va uslubiga bog'liq bo'ladi. Operaning musiqiy tili ham aniq va tushunarli

bo'lishi lozim. Kuylash davomida jo'r bo'luvchi fakturaning murakkablashuvi haddan tashqari tavsilotlariga berilishi, orkestr partiyasining ko'payib ketishi eng yaxshi musiqa ham qabul qilishga katta to'sqinlik qiladi. Opera musiqasi nomerlardan iborat. Nomerlar besh xil bo'ladi: yakka nomerlar (ariya, monolog, qo'shiq, romans va h.k.), ansambl nomerlar (duet, trio, kvartet, kvintet va h.k.), xor nomerlari, raqs nomerlari, orkestr nomerlari. Opera tomoshasi orkestr ijro etadigan kuy-uvertyura bilan boshlanadi. Uvertyura musiqasi operaning mazmunini aks ettiradi. Birinchi opera 1594-yil Italiyaning Florensiya shahrida yaratildi. Buyuk italyan kompozitori Juzeppe Verdining ijodiy faoliyati yarim asrdan ko'proq vaqt davom etgan bo'lib, Italiyaning ijtimoiy-siyosiy, madaniy hayoti bilan uzviy bog'liq. U yaratgan operalar butun dunyoga mashhur. Ulardagi kuylar barcha musiqa ixlosmandlariga yaxshi tanish. Verdi o'z asarlarida shaxs erkinligi va ozodligini, insonning eng ajoyib xislatlarini va qahramonligini madh etgan. Uning musiqasida italyan xalqining ozodlik uchun olib borilgan kurashi yorqin aks ettirilgan. Chunki Italiya ko'p yillar davomida Avstriya imperiyasining zulmi ostida bo'lgan. Katta ijodiy yo'li davomida Verdi 26 ta opera yaratdi. Unga eng katta shuhrat keltirgan dastlabki operalaridan biri "Nabukko" operasi hisoblanadi. "Lombardliklar", "Janna d'Ark", "Atilla" operalarida vatanparvarlik va qahramonlik aks ettirilgan. Verdi doim operalariga syujet qidirganda katta g'oyaviy mazmunli, kuchli dramaturgiyaga ega bo'lgan va yorqin qarama-qarshiliklarga boy adabiy asarlarni tanlagan. V. Gyugo dramasi asosida yozilgan "Ernani", F. Shiller tragediyasi asosida yozilgan "Luiza Miller", "Don Karlos", V. Shekspirning "Makbet", "Otello" "Falsataf" kabi mislollarni keltirish mumkin. Verdining mashhur "Rigoletto", "Traviata", "Trubadur" operalarida uning musiqiy dramaturgik iste'dodining eng yaxshi tomonlari namoyon bo'ldi. Misol qilib, "Rigoletto" operasi mashhur fransuz yozuvchisi Viktor Gyugoning "Qirolning dilxushi" nomli dramasi asosida yozilgan. Bu opera librettosini taniqli shoir F. Piave yozdi. "Rigoletto" operasida yorqin qarama-qarshiliklarga boy asar. Opera voqeasi juda tez rivojlanadi. Fojiali va quvnoq xarakterdagi sahnalar almashib turadi. Asar markaizda masxaraboz Rigolettoning fojiali obrazi turadi. U o'z fojiasining sababini qarg'ishdan deb biladi. Shuning uchun operada yagona "qarg'ish leytmotivi" bor. Orkestr ijro etiladigan kirish qismi shu leytmotiv opera davomida ko'p marta takrorlanadi. Hayajonli, xis-tuyg'ularga to'la ishonarliligi bu operaning ajoyib xususiyatidir. Operada orkestrning roli salmoqli, vokal melodiyaning esa roli yetakchidir. "Rigoletto" operasidagi barcha kuylar ommalashib ketgan. Gersogning "Go'zallar qalbi xiyonatga moyil" so'zalari bilan aytiladigan qo'shig'i premyeradan oldin mashhur bo'lib ketmasligi uchun Verdi uni ijrochiga faqat oxirgi repititsiyasida bergan. Haqiqatdan ham boshqa kuylar qatori bu qo'shiq ham xalq qo'shig'iga aylanib qoldi. Opera qahramonlarini ichki dunyosini mahorat bilan ochib berish, musiqiy tilning oddiy va ifodaliligi, italyan xalq musiqasidan kelib chiqqan qo'shiq ruhi, keskin, dinamik rivojlanishiga intilish, insonparvarlik g'oyasi va ijtimoiy adolatsizliklarni tanqid qilish bu operalarning asosiy xususiyatlaridir. Kompozitor operalari hozirgi kunda ham dunyo opera teatrlarida namoyish qilinmoqda. Kompozitorning opera xor sahna asarlari ham deyarli barcha xor repertuarlaridan o'rin olgan. Bular, "Traviata" operasidan "Lo'lilar xori", "ispan matadorlarining xori", "Trubadur" operasidan "Lo'lilar xori", "Askarlar xori", "Aida" operasidan "Kim ulug'vorlikka erishadi xori", "Ruhoniy va ruhoniylar xori", "Qullar xori", "Nabukko" operasidan "Mahbuslar xori", "Sen go'zalsan ey Vatanim", "Van pensiero", "Otello" operasidan "Bo'ron", "G'alaba" xorlari shular jumlasidandir. Verdi ijodi XIX asr italyan operasi rivojlanishining eng yuqori nuqtasi va jahon musiqa san'atida opera realizmining cho'qqisidir. O'zidan avvalgi zamondosh kompozitorlari D. Rosini, G. Donisetti, V. Bellini an'alarini davom ettirgan, turli opera maktablari tajribasini Sh. Guno, R. Vagner o'rgangan va italiya xalq musiqasiga tayangan Verdi o'zining ajoyib uslubini yaratdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. М. Друскин История зарубежной музыки
2. Г. Соловсова "Верди" М. 1866 г
3. R. Abdullayev "Opera dramaturgiyasi"